



O'ZBEK XALQ CHOLG'ULARINING MILLIY MADANIYATIMIZ RIVOJIDAGI AHAMIYATI: O'TMISH VA BUGUN MISOLIDA

Abduraximov Javoxir¹, M.G'afurov¹

¹O'zbekiston davlat San'at va madaniyat
instituti cholg'u ijrochiligi
mutaxassisligi 2-kurs magistranti

²Ilmiy rahbar: v.v.b. prof.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6473211>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 01-aprel 2022

Ma'qullandi: 10-aprel 2022

Chop etildi: 15-aprel 2022

KALIT SO'ZLAR

milliy madaniyat, xalq
cholg'ulari, Kaykovus, Abu
Nasr Farobiy, nomoddiy
madaniy meros

ANNOTATSIYA

Ushbu ilmiy maqolada o'zbek xalq cholg'ulari va ularning milliy madaniyatimiz rivojidagi ahamiyati tahlil etilgan. O'tmish va bugun misolida xalq cholg'ularining madaniyatga ta'siri izohlangan.

Har bir xalqning milliy cholg'ulari va ularda ijro etiladigan kuylar o'sha xalqning millat bo'lib shakllanish jarayonlari, etnik xususiyatlari va boshqa omillarni biriktirgan holda shu xalqning milliy madaniyatini aks ettiradi. Xalqning milliy qadriyatlaridan sanalgan cholg'u asboblari va ijrochilik madaniyati yillar davomida shakllangan xalqning sivilizatsiyasidan dalolat beradi. Masalan, yozma manbalar hamda arxeologik ma'lumotlarning dalolat berishicha, O'rta Osiyoda bundan ikki ming yillar avval hozir ishlatilayotgan cholg'u asboblarning bevosita ajdodlari bo'lgan turli xil sozlar tarqalgan. Ijro etilayotgan kuyda muayyan davrning muhim xususiyatlari aks ettirilgan. Cholg'u kuyi xalq musiqiy mohiyatining shakllan mukammal va mazmunan serqirra ifodasidir.

Xalqning musiqiy madaniyati yuksalib borgani sari cholg'u asboblari ham mukammallashib, boyib boradi. Ayrim musiqiy cholg'ular o'zining ibtidoiy ko'rinishini bugungi kunda ham saqlab qolgan bo'lsa, ayrimlari ilk ko'rinish va xususiyatlaridan ancha uzoqlashib, takomillashib borgan.

IX asrda yaratilgan "Qobusnoma" o'z davrining madaniy va ma'naviy muhitini aks ettirgan ajoyib yodgorlik hisoblanadi. Asarda saroy muhitidagi musiqachilar va ular ijro etgan kuy va ohanglar rang-barangligiga to'xtalib o'tilgan. Asar orqali ushbu davrda musiqa tinglovchiga axloqiy ta'sir etish vositasi sifatidagina emas, undan davolash vositasi sifatida foydalanilganini ham bilib olish mumkin. O'zbek milliy musiqa merosi qadimdan avlodlardan avlodga og'zaki tarzda ustoz va shogird an'analari orqali o'tib rivojlanib



kelgan. Rivoyatlarda keltirilishicha, tanbur, dutor, nay, g'ijjak cholg'ulari to'rtta farishta, ya'ni elchi farishta Jabroil, olamni harakatlantiruvchi farishta Mikoil, oxiratda sur chaluvchi bo'ron farishtasi Isrofil, jon oluvchi farishta Azroillarning Odam Ato tanasiga jon kiritishdagi sa'y-harakatlari tufayli vujudga kelganligi aytiladi. Sozanda va mextarlik risolalarida qayd etilishicha, ular jannatdan "dur", ya'ni tut yog'ochini olib chiqib cholg'ularni yasagan ekanlar [1, 31-32]. Manbalarga tayanadigan bo'lsak, qadimgi Sug'diyonaliklar madaniyatiga oid Ayritomdagi suratda bir necha musiqachi tasvirlangan. Ularning qo'llaridagi naysimon, puflab chalinadigan asbob, arfaga o'xshash torli cholg'u asbob, cho'zinchoq shakldagi ikki tomonlama nog'oralarga qarab Sug'dlar musiqiy cholg'ularning asosiy xillarini bilganlari va bu cholg'ullardan yakka holda hamda ansambl shaklida foydalanganliklarini bilib olishimiz mumkin. Afsuski, bizning musiqiy cholg'ularimiz haqidagi ayrim eng qadimiy yozma manbalar bizgacha yetib kelmagan. Arab va mo'g'ullar bosqini davrida ko'pgina moddiy hamda nomoddiy manbalarimiz qatorida yondirib yuborilgan. Manbalarda keltirilishicha, arxeologlarning qidiruv ishlari natijasida Maroqandda (Qadimiy Samarqand), Xorazm, Baqtriyadan topilgan qazilma boyliklar orasida kattaligi 9-10 santimetr bo'lgan loydan, gildan pishirib yasalgan musiqachilarning haykalchalari topilganligi ajdodlarimizning musiqiy madaniyati nihoyatda rivojlanganligidan dalolat beradi.

O'rta asrlarga kelib vokal musiqasi ancha rivojlandi. O'sha davrlarda yaratilgan musiqaga oid risolalarda vokal musiqaga san'atning eng muhim shakli deb urg'u berilgan bo'lsa-da, o'z navbatida cholg'u

musiqasiga ham alohida e'tibor qaratilgan. Abu Nasr Farobiyning "Kitob al-musiqiy al Kabr" asarida "cholg'u musiqasi ashulaga jo'r bo'ladi yoki ovozga taqlid qiladi, uni boyitadi hamda ashulaning boshlang'ich musiqasini va oralaridagi cholg'u qismini hosil qiladi. Bu esa ashulachiga dam beradi. Ayni vaqtda ular ashulachining ovozi yetmaydigan joylarini bo'rttirib musiqani boyitadi" deya musiqaning xususiyatlari bayon etiladi.

O'rta Osiyo hududida og'zaki an'anadagi xalq kuylari hamda professional kuylar ijro etiladigan rang-barang cholg'u asboblari yoyilgan. Milliy cholg'u asboblaridagi ushbu ijrochilik san'ati asrlar davomida rivojlanib, bir ijrochidan boshqasiga og'zaki o'tib, bizgacha yetib kelgan. Milliy cholg'u asboblarida ijrochilik san'ati rivojlanishi bilan barobar cholg'u asboblarini yasash san'ati ham rivojlanib, ustozdan shogirdga o'tib kelgan. Milliy cholg'u asboblarining klassik shakllari qaror topishiga aynan ijrochilik san'ati ta'sir ko'rsatgan. Milliy cholg'u asboblari xalqning madaniy qadriyati bo'lib, ijrochilik san'ati bilan chambarchas bog'langan. Ijrochilik madaniyatining takomillashuvi jarayoni bilan milliy cholg'u asboblarining rivojlanish jarayonining chambarchas munosabati ularni jamiyat musiqiy ehtiyojlariga javob beradigan tarzda takomillashtirish g'oyasini ilgari suradi. Musiqiy cholg'ularning vujudga kelishida xalqning hayoti, tumush tarzi, ruhiy olami, hissiy (emotsional) boyligi, dunyo qarashi, an'analari etakchi omil hisoblanadi. Umuman olganda sozlarning yaratilishi insonning o'z dunyo qarashi, falsafiy estetik kechinmalarini badiiy ifodalashga bo'lgan ma'naviy ehtiyoji bilan bog'lidir. Musiqiy sozlarning yaratilish jarayoniga nazar



soladigan bo'lsak, ibtidoiy tosh davridagi mavjut qayroqdan tortib hozirgi zamonaviy cholg'ulargacha bo'lgan o'nlab cholg'u asboblari namunalarining guvohi bo'lamiz. Bu cholg'ular orasida asrlar osha mukammallashib bizgacha etib kelgan sozlar ham mavjud. Manbalarda keltirilishicha, musiqiy sozlar tarkibiga kiruvchi urma va damli sozlar ilk bor bunyotga kelib keng ommolashgan. Ularning ommolashuvida hayot taqozasi muhim ro'l uynagan. Ijtimoiy taraqqiyot va turli tarixiy voqealar hamda vaziyatlarda musiqiy cholg'ularning turlicha shakillari yuzaga kelgan. Yakka ijrochilik eng qadimiy ijro shaklini tashkil etgan. Bunga misol qilib ovchilar bulan bog'liq ijro jarayonlarini yoki xalq marosimlarida qo'llanilgan qattiq ovoqli, ochiq maydonlarda chalish uchun mo'ljallangan urma va damli sozlarni keltirish mumkun. Uzoq tarixiy taraqqiyot moboynda yaratilgan turli san'at namunalari, ijrochi yoki musiqa cholg'ulari aks ettirilgan tasviriy obidalarini tahlil etish shuni ko'rsatadiki, eramizning IV-V asrlaridan boshlab musiqiy janrlar, cholg'ularning turli namunalari ham kashf etilgan.

Hozirgi kunda ko'plab xorijiy davlatlardagi musiqachilar yoki musiqaga qiziquvchilar milliy cholg'ularimizni kelib ko'rishga qiziqish bildirishmoqda. O'zbek madaniyati va san'atiga qiziqqan akademik vokal yo'nalishida *Santes* musiqa kollejida dars beruvchi fransiyalik Silvan Roy hozirgi kunda tanbur, dutor, qo'shnay va rubob sozlarini o'rganishga erishmoqda. XX asrning 20-30 yillaridan boshlab mamlakatimizda turli musiqiy o'quv maskanlari faoliyatini boshladi. Masalan, dastlabkilari "Turkiston xalq konservatoryasi" (1918) va uning filiallari

"Toshkent davlat musiqa bilim yurti" (1924), "Namangan va Buxoro musiqa bilim yurti" (1932), "Toshkent davlat konservatoryasi" (1936) hamda bir qator musiqa maktablari o'zbek xalq cholg'ulari ijrochilik tarixida yangi davrni boshlab berdi. O'zbek musiqasi jahon sahnalarida namoyish qilinib, tinglovchilar tomonidan yuksak baholandi. Sozanda ijrochilarning nafaqat mamlakatimizda, balki xalqaro miqyosida bo'lib o'tgan tanlov va jahon festivallarida qatnashishlari hamda sovrindor bo'lishlari ijrochilik san'atimizni yuqori pog'onalarga ko'tardi.

Milliy cholg'u sozlari va ularda ijrochilik san'ati xalq madaniy qadiriylaridan biridir. Har bir xalq o'zining milliy merosini, davrlar osha yuzaga kelgan an'analarini milliy ohanglar orqali tarannum etuvchi va xalqlarning milliy ma'naviyatiga xos yaratilgan cholg'u sozlariga ega. O'zbek xalqining bebho boyligi hisoblanmish musiqa cholg'ulari o'zining betakrorligi, tuzilishi, tembr-akustik xususiyatlari, naqsh-bezaklarining jozibadorligi, ovoz tarovatining rang-barangligi va ijro imkoniyatlarining beqiyosligi bilan milliy musiqiy madaniyatimizda alohida o'rinni egallaydi. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda, ular qalbi va ongida ona Vatanga muhabbat, istiqloq g'oyalariga sadoqat, umr boqiy an'alarimizga hurmat tuyg'ularini chuqur singdirishda, ezgu va hayotbaxsh g'oyalarni undashda musiqaning o'rni beqiyosdir.

Milliy madaniyatimizda nafaqat xalq cholg'ularining o'zi, balki ularning yasash usullari, bezaklari, undan taraladigan kuy va navolar ham katta ahamiyatga ega. Nomoddiy-madaniy meros tarkibiga kiruvchi musiqa san'atining ajralmas qismi



hisoblangan milliy cholg'ularning yuqoridagi xususiyatlari ham yoshlarimiz uchun ahamiyatlidir. Bu orqali ularga har bir boylikni avaylab-asrash, uni kelgusi avlodga aslidan uzilmagan holda yetkazish vazifasini his qilishni o'rgatish mumkin.

So'ngi yillarda O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish, yangi O'zbekistonning yangi tarixini yaratish, moddiy va nomoddiy madaniy meros durdonalarini saqlash va targ'ib etish, xalq og'zaki ijodiyoti va havaskorlik san'atini yanada ommalashtirish, yurtimizning jahon madaniy makoniga faol integratsiyalashuvini ta'minlash, madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi. [2]

Bugungi madaniyatning ilmiy tushunchasi insoniyat tomonidan yaratilgan va yaratilishi davom etayotgan ma'naviyat, ruhiyatning o'ziga xosligini anglashi natijasi sifatida ta'riflanadi. San'at odamlarning estetik talablarini qondirish bilan birga o'z taraqqiyotining turli davrlarida jamiyat a'zolarini ma'lum ruhda tarbiyalash, ularni aqliy va hissiy jihatdan rivojlantirish vositasi sifatida xizmat qilib kelgan, ularning turli maqsad, his-tuyg'u, manfaat ideallarini ifoda etgan. Tabiat,

jamiyat va insonning ijtimoiy, ma'naviy, milliy dunyosi san'at predmeti hisoblanadi. Yurtimizda san'atning barcha yo'nalishlari kabi milliy musiqamizni yanada rivojlantirish, ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, yosh iste'dodlar iqtidorini ro'yobga chiqarish uchun ko'maklashish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mutaxassislarining fikricha, agar yoshlarda musiqa eshitish madaniyati qancha erta tarbiyalansa, bu ularning tarbiyasiga shunchalik ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun mumtoz musiqa, milliy cholg'ularimizni chalish va o'rganishni hamda targ'ib etishni keng miqyosda amalga oshirish lozimdir.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, xalq cholg'ularining shakllanishi va rivojlanishini tadqiq etish orqali ushbu nomoddiy madaniy merosning milliy madaniyatimizga ta'siri hamda u orqali milliy madaniyatning rivojini aniqlashga erishiladi. Har bir xalq o'ziga xos milliy madaniyatiga ega ekan, uning bir qismi sifatida milliy cholg'ular ham milliylikni o'zida saqlab qolishi lozim. Bugungi kunda unutilib ketilayotgan milliy cholg'ularni qayta tiklash natijasida milliy madaniyatimizni ham qayta tiklashga erishamiz.

References:

- 1.A.Liviyev. O'zbek milliy cholg'usozlik tarixi. T.:2005
2. Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. PF-6000, 26.07.2020. Uz.lex
- 3.S.Begmatov., M.Matyokubov. O'zbek an'anaviy cholg'ulari. T.:2008